

JAMOAT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI TO'G'RISIDA EKSPERT BAHOLARI



Jo'raev Muhiddin Utkurovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoat xavfsizligi tushunchasining konseptual-strategik hujjatlari hamda xorijiy va mahalliy olimlarning jamoat xavfsizligi tushunchasiga bergan ta'riflari, ularning qiyosiy tahlillari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, shaxs, erkinlik, jamiyat va davlat manfaatlari, xavfsizlik, huquq, konsepsiya, tasnif, ta'rif.

ЭКСПЕРТНЫЕ ОЦЕНКИ ПО КОНЦЕПЦИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация. В статье представлены определения понятия общественной безопасности в концептуальных и стратегических документах, а также мнения зарубежных и отечественных ученых, кроме этого сделан сравнительный анализ понятии общественной безопасности.

Ключевые слова: общественная безопасность, обеспечение общественной безопасности, личность, свобода, интересы общества и государства, безопасность, право, понятие, классификация, определение.

EXPERT ASSESSMENTS ON THE CONCEPT OF PUBLIC SAFETY

Abstract. The article presents definitions of the concept of public security in conceptual and strategic documents, as well as the opinions of foreign and domestic scientists, in addition, a comparative analysis of the concept of public security is made.

Keywords: public safety, ensuring public safety, personality, freedom, interests of society and the state, security, law, concept, classification, definition.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uzoq muddatli konseptual-strategik hujjatlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Jamoat xavfsizligini ilm-fanning mustaqil sohasi sifatida belgilagan holda kompleks tadqiqotlarni rivojlantirish, jamoat xavfsizligiga tahdidlar

tizimini ishlab chiqish, jamoat xavfsizligiga tahdidlarni baholash mezonlari va indikatorlarini belgilash bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish maqsadida xorij olimlarining bu sohaga bo'lgan qarashlari va yondashuvlari o'rganildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda jamoat xavfsizligi tushunchasi keng qamrovli bo'lib, butun dunyo bo'ylab izlanishlar, o'rganishlar olib borilgan va olib borilmoqda.

Quyida bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning jamoat xavfsizligi tushunchasiga bergan ta'riflarining xilma-xilligini, jamoat xavfsizligini keng va tor ma'noda tushunish bilan bog'liq fikrlarini ko'rib chiqamiz.

Xususan, olimlarning jamoat xavfsizligi tushunchasiga bergan ta'riflari hamda fikr-mulohazalari shartli ravishda keng va tor ma'noni anglatuvchi guruhlariga bo'lindi.

Jumladan, keng ma'noda o'zbek huquqshunosi, yuridik fanlar doktori, professor M.X. Rustambayevning "Jamoat xavfsizligini ta'minlash fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, tadbirkorlarning manfaatlarini himoya qilish va boshqa shu kabi muhim masalalar bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirishda ifodalanadi" degan fikrini keltirish mumkin [1].

Shuningdek, bir qator olimlar jamoat xavfsizligi tushunchasini keng ma'noda holat, tizim yoki jarayon deb ta'riflagan bo'lsa, ayrim olimlar tor doirada metodik asos, munosabat, element, chora-tadbirlar deb fikr bildirganlar.

Xususan, olim S.V. Nesterov o'z tadqiqotlarida, jamoat xavfsizligi deganda, jamiyatning g'ayrihuquqiy tavsifdagi tahdidlardan himoyalanganlik holati tushunilishini keltirib o'tgan [2].

N.A. Bosxamdjiyevaning tadqiqotlarida jamoat xavfsizligiga milliy xavfsizlikning ajralmas qismi, ijtimoiy guruhlar va odamlar muloqoti, inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, jamiyatning boshqa qonuniy manfaatlarini tashkil etishning asosini tashkil etuvchi moddiy va ma'naviy qadriyatlarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlar, texnogen va tabiiy xususiyatga ega bo'lgan zararli hodisalar, ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarga tahdid soluvchi boshqa omillar va shart-sharoitlardan himoyalanganlik holati sifatida qarash taklif etilgan [3].

I.Yu. Makarichevning ta'kidlashicha, jamoat xavfsizligi tushunchasi shaxs, jamiyat va davlatning hayot faoliyati, davlat va munitsipal hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari (birlashmalari) va fuqarolarning xavfsiz faoliyat yuritishi, shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquq normalari bilan himoyalanganlik holatini ifodalaydi [4].

A.A. Varguzovanning fikriga ko'ra, jamoat xavfsizligi – jamiyatning o'z hayotiy muhim

manfaatlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini ta'minlovchi himoyalanganlik holati, shuningdek, shaxs, jamiyat va davlat hayotiy faoliyati jarayonida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar holati hisoblanadi [5].

M.I. Agabalayevning qayd etishicha, jamoat xavfsizligi – bu jamiyat va davlatning jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tashkil etish, davlat va jamiyat institutlarining me'yoriy ishlashi, inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishni tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning himoyalanganlik holati [6].

D.G'. Xalmuxamedovning fikriga ko'ra, "jamoat xavfsizligi nafaqat shaxs, jamiyat yoki davlat manfaatlarining muayyan darajada ta'minlanganligi, balki o'sha shaxs yoki butun bir jamiyatning barqaror rivojlanishiga xavf tug'diruvchi omillardan qayd darajada (masalan, huquqiy yoki ijtimoiy) himoyalanganlik holatini ham ifodalaydigan fenomendir" [7].

L.P. Volkovanning fikricha, jamoat xavfsizligi – ijtimoiy munosabatlarning tahdidlardan himoyalanganligi [8].

P.V. Minenkoning qayd etishicha, jamoat xavfsizligining jinoiy-huquqiy tushunchasi davlat tomonidan qo'riqlanadigan, jamoat institutlarining faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan va jamiyatning normal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zarur sharti bo'lgan ob'yektlarning zarur yoki yetarli darajada himoyalanganligi bilan bog'liq [9].

Ya.N. Radyushin jamoat xavfsizligi davlat va shaxsiy xavfsizlik bilan birgalikda milliy xavfsizlikning mazmunini tashkil etadi, shu bilan birga, uning xavfsizlik ob'yekti belgisiga ko'ra sezilarli darajada farqlanadigan turlari hisoblanadi. Bunda davlat xavfsizligining ob'yekti davlat, jamoat xavfsizligining obekti jamiyat va shaxs, shaxsiy xavfsizlikning ob'yekti esa tashkilotlar va shaxslardir. Ob'yektlarni aniqlashtirish ushbu tarzda bo'lishining sababi shundaki, davlat va jamiyat, davlat va shaxs xavfsizligi kabi masalalarni hal qilishda ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lsada, jamiyat xavfsizligini ta'minlashni shaxsni

himoya qilmasdan, uning manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini to'g'ri tushunish uchun zarur bo'lgan aynan shu shart, uning ob'ektlari qatoriga jamiyat bilan bir qatorda shaxsning ham kiritilishini ta'kidlaydi [10].

B.P. Kondrashovning fikriga ko'ra, jamoat xavfsizligi – ijtimoiy xavfsizlikning bir turi sifatida, shaxsning xavfsizligini, jamoat osoyishtaligini, fuqarolarning mehnat qilishi va dam olishi uchun qulay shart-sharoitlarni, davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning jinoiy va boshqa g'ayriqonuniy qilmishlardan kelib chiqadigan tahdiddan, yuqori xavfli manbalardan, erkin fuqarolik muomalasidan chiqarilgan predmetlar va moddalardan foydalanish tartibini buzishdan, shuningdek ijtimoiy, tabiiy, texnogen xususiyatga ega bo'lgan salbiy hodisalardan va boshqa alohida holatlardan normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida huquqiy normalar bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi [11].

G.V. Ishuk, "jamoat xavfsizligi deganda, davlat, jamiyat va shaxsning ijtimoiy muhim manfaatlari himoyalanganligi holati tushunilishi lozim, jamoat tartibi jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan jarayondir", degan fikrni ilgari suradi [12].

K.A. Haydarov va M.A. Saminjonovlarning fikriga ko'ra, "jamoat xavfsizligi tushunchasi zamirida mamlakat xavfsizligini ichki xavf va tahdidlardan himoyalash sohasida qabul qilingan qonunchilik asnosida aniq muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari va fuqarolar faoliyati xavfsizligini ta'minlash maqsadi asosida muvofiqlashtirishga qaratilgan mexanizmni tushunish lozim" [13].

Shu o'rinda, olim R.R. Rashidov qarashlarida "fanda "jamoat xavfsizligi" kategoriyasi tor va keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Keng ma'noda "jamoat xavfsizligi" jamiyatning himoyalanganligi, tor ma'noda esa – jamoat joylarida xavfsizlikning ta'minlanganligi sifatida tushuniladi" [14].

Ye.A. Drojgin o'z tadqiqotlarida jamoat xavfsizligi jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar ekanligini, uning himoya

obekti – jamiyat (jamiyat xavfsizligi) hisoblanishini asoslab bergan [15].

A.M. Voronovning ta'kidlashicha, xavfsizlik tushunchasi xavfsizlikning umummilliy nazariyasi tarkibidagi asosiy kategoriya sifatida ta'riflanib, jamoat, axborot va boshqa turdagi xavfsizlikni ta'minlash muammolarini o'rganishning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi [16].

R.A. Romanov "jamoat xavfsizligi barcha fuqarolarga, istisnosiz, tug'ilishdan to umrining oxirigacha tegishli bo'lib, ham huquq normalari, ham boshqa ijtimoiy va texnik normalar bilan tartibga solinadi" [17], deb hisoblaydi.

D.A. Korotchenkov "jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi milliy xavfsizlik tizimining eng muhim elementlari hisoblanadi" [18], degan fikrni ilgari suradi.

F.K. Xo'jamberdiyev va I.Yo. Qilichevlarning ta'kidlashicha, "Jamoat tartibi va xavfsizligini muhofaza qilish deganda odamlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ularning insoniy qadr-qimmatlarini, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning manfaatlarini himoya qilish, odamlarning mehnat qilishi va hordiq chiqarishi, davlat organlari, jamoat birlashmalari va mehnat jamoalarining normal ishlashiga yaxshi madad beradigan hamda xotirjamlik muhitini yaratish bo'yicha turli davlat organlari va jamoat birlashmalari tomonidan tizimli choratadbirlar amalga oshirish tushuniladi" [19].

A.Ye. Tashmuxammatov "jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi ijtimoiy munosabatlarning har xil turi bo'lib, ular o'rtasida chambarchas aloqadorlik mavjud: ushbu guruh munosabatlarning har biri boshqasining mavjudlik shartidir", deb ta'riflaydi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari va qarashlari turlicha bo'lishiga qaramay, ularning mazmun-mohiyatida o'xshashliklar kuzatiladi va bu masalalarni batafsil o'rganilishi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini takomillashtir hamda jamoat xavfsizligi tizimi konsyeptual asoslarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Рустамбаев М.Х. Совершенствование применения современных технологий при обеспечении общественной безопасности // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali/ – Toshkent, 2021. – № 1. – В. 28.
2. Нестеров С.В. Формы соучастия в преступлениях против общественной безопасности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2016.
3. Босхамджиева Н.А. Административно-правовые основы обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Москва, 2013.
4. Макарычев И.Ю. Административно-правовое обеспечение общественной безопасности органами муниципальной власти: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Люберцы, 2010. – С. 13-14.
5. Варгузова А.А. Административно-правовое регулирование деятельности органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2005. – С. 10.
6. Агабалаев М.И. Развитие теории и практики административно-правового режима обеспечения общественной безопасности Российской Федерации: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2004. – С. 14.
7. Xalmuxamedov D.G'. Jamoat xavfsizligi tushunchasi va uning mohiyati // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2022. – № 1. – В. 117.
8. Волкова Л.П. Административно-правовой статус милиции общественной безопасности в системе МВД РФ: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2000. – С. 12.
9. Миненко П.В. Исправление осужденных за преступления против общественной безопасности в целях предупреждения специального рецидива: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Тамбов, 2009. – С. 8.
10. Радюшин Я.Н. Компетенция органов государственной власти и органов местного самоуправления в сфере обеспечения общественной безопасности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2006. – С. 10.
11. Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства ее обеспечения: Автореферат дис. ... д-ра юрид. наук. – Москва, 1998. – С. 9.
12. Ищук Г.В. Криминологическая характеристика и предупреждение преступлений против общественного порядка и общественной безопасности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Рязань, 2005. – С. 9.
13. Xaydarov K.A. Saminjonov M.A. Jamoat tartibi va xavfsizligiga tahdidlarning tamoyillari // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2021. – № 2. – В. 74.
14. Rashidov R.R. Jamoat xavfsizligiga doir nazariy qarashlar va yondashuvlar tahlili // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2021. – № 3. – В. 47.
15. Дрожжина Е.А. Общественная безопасность как объект преступления: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2015.
16. Воронов А.М. Общественная безопасность: административные и информационно-правовые проблемы обеспечения: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Москва, 2005. – С. 15.
17. Романов Р.А. Государственные услуги в сфере обеспечения общественной безопасности (правовые и организационные аспекты): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2012. – С. 3.
18. Коротченков Д.А. Организация административно-правовой охраны общественного порядка и обеспечения общественной безопасности при проведении массовых мероприятий: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Хабаровск, 2006. – С. 8.
19. Xo'jamberdiev F.K., Qilichev I.Yo. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2022. – № 2. – В. 176.